

022
P. 18

JALOLIDDIN MANGUBERDI



TOSHKENT „O‘QITUVCHI“ 2001

Muallif: JUMABOY RAHIMOV

Taqrizchilar: Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov, tarix fanlari doktori, professor O.Sodiqov.

Turonlik buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining Vatanimiz ozodligi, mustaqilligi uchun dushmanlarga qarshi olib borgan mardona kurashlari tarix sahifalariga zarhal harflar bilan bitilgandir. Bu yurtsevar, jasoratli bahodirning mardligi, vatanparvarligi, ona-yurtimiz, millatimiz, xalqimiz, xususan, yosh avlodlarga buyuklik va jasorat ramzi bo'lib qoladi.

Mazkur kitobda fidoiy vatandoshimiz Jaloliddin Manguberdining hayot yo'li qiziqarli badiiy lavhalarda hikoya qilinadi. Bu lavhalarning hammasi tarix haqiqatlariga asoslangandir. Kitob maktabgacha yoshdagi bolalar va o'rta maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda keng kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar himoya qilinadi va nashriyotga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni nashriyot rozilgisiz to'liq yoki qisman ko'chirib bosish taqiqlanadi.

R **4306020600 — 34**
353 (04) — 2001 Buyurtma var. — 2001.

© „O'qituvchi“ nashriyoti, 2001.

ISBN 5-645-03706-5

*O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining
10 yilligiga bag'ishtanadi*

*Sulton bug'doyrang, qoramtir va o'rta bo'lyi edi.
Ko'rinishi butunlay kamtarin va turkiyda gaplashardi,
forschani ham yaxshi bilardi. U sokin tabiatli edi.
Hech kimga kufr qilib yomon so'zlar so'zlamasdi.
Jiddiy va haybatli, sabrli edi. Kulmas edi, kulimsirardi.*

(Shihobiddin-an Nasaviy)

So'z boshi

Mustaqillik sharofati bilan xalqimizning mard o'g'loni Jaloliddin Manguberdi safimizga yana qaytdi. Jaloliddin otining dupuri va o'zining Vatan erki yo'lidagi hayqirig'ini eshitish xalqimizga bag'oyat maroqlidir. Buyuk ajdodlarimizning mustaqil yurtimizga ma'nan qaytgani rost bo'lsin, xalqim! Ular endi har qanday mashaqqatlarni yengib o'tishimizda bizga ruhan madadkordirlar. Kelajagi buyuk davlatni mustahkamlashga ulug'larimiz kelib qo'shilib, yonimizda moziyning ulug' donishlari *Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Imom al-Buxoriy, Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Motrudiy, Amir Temur Ko'ragon, Mir Said Baraka, Najmiddin Kubro, Imom al-Marg'inoniy, Zamaxshariy, Xo'ja Ahror Valiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Yalangto'shbiy* hamda *Ogahiy* va boshqa minglab

tabarruk zotlar ruhi bizga hamdam ekan, bu yurt endi aslo zavol bilmayajak.

Bu ruh Xitoy devoridan-da yuz chandon mustahkam, temir oqim singari qudratlidir. Bu ruh bilan biz albatta dunyo turguncha yashaymiz, buyuk davlat quramiz.



**Jaloliddin Manguberding bobolari
buyuk saltanat sohiblari edilar.**

Xorazm Sharqdagi tabarruk makonlardan biri, qadimiy madaniyat o'choqlaridan sanaladi. Bu yerda O'rta Osiyoning ilk davlatchilik tizimi shakllangan. Ayniqsa, davlatchilikning uchlamchi pog'onasi bo'lgan anushteginlar sulolasi uning nomini jahonga taratdi. Jaloliddin Manguberding katta bobolari o'sha shajaradan boshlanadi. Bu shajara qadim moziydagi ajoyib va g'aroyib voqea hamda hodisalarga boy tarixning jonli guvohidir. Unga manbalar orqali nazar solinsa, tarix qatlamlariga yashiringan ko'plab haqiqatlar, sir-sinoatlar namoyon bo'ladi. Bu shajara dunyoning yirik saltanatlaridan bo'lmish Xorazmshohlar davlatining tarix asoschilarini tarix maydoniga chiqardi. Tarixda barcha davlatlar dastlab kurtak holatda bo'lgani, so'ngra kuchaygani va rivojlangani, gullab-yashnagani, nihoyat, inqiroz bosqichlarini bosib o'tganligiga guvoh bo'lamiz.

Xorazmshoh Anushteginlar boshqargan davlat ham shu bosqichni chetlab o'tmadi. Bu sulolaning ilk vakili o'z siyosiy faoliyatini Saljuqiylar davlati saroyining amaldorligidan boshladi. Anushtegin 1097- yili vafot etgach, uning o'g'li **Qutbiddin Muhammad** noiblik taxtiga o'tiradi. Qutbiddin Muhammadning 1127- yilga qadar Xorazmni 30 yil mobaynida idora qilishi mamlakatning har jihatdan ravnaqiga keng yo'l ochib beradi. U Xorazm xalqi xotirasida mard, adolatli va xalqparvar hukmdor sifatida yaxshi nom qoldirgan. U hayotligida Sulton Sanjarning qanchalik hurmatini qozonmasin, o'z yurti va el-ulusining ozod, mustaqil bo'lishini doimo orzu qilgan. Biroq saljuqiylar bu paytda juda qudratli davlat bo'lganligini inobatga olib, unga qarshi bemavrid jang boshlashni ep ko'rmadi. O'limi oldidan qalbining to'rida saqlagan ushbu sirini o'g'liga vasiyat qilib qoldirdi. O'zi amalga oshira olmagan ulug' maqsadni suyuqli o'g'li **Jaloliddin Otsiz** tomonidan amalga oshirilishiga katta umid bilan qarab, uni jasurlikda tengsiz, o'ta mohir jangchi, shahzodalarga zarur ilm-u hunarlar sohibi bo'lishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berdi. Jaloliddin Otsiz Marvdagi mashhur madrasada ta'lim oldi. 1127- yili o'ttiz yoshga yetay deb turgan Jaloliddin Otsiz ota taxtiga o'tiradi.

Jaloliddin Otsiz vafotidan keyin uning o'g'li

Abul Fath El-Arslon 1156- yil avgust oyida taxtga o'tirdi. Unga yaratganning o'zi hukmdorlik va sarkardalik uchun zarur bo'lgan zo'r iste'dod va qobiliyatni ato qilgan edi.

Xorazmshohlar davlatini dunyoning yetakchi va qudratli saltanatiga aylantirishdek zalvarli vazifa El-Arslonning o'g'li **Aloviddin Takash** zimmasiga tushdi. Xorazmshoh Takash Xorazm tasarrufiga o'tmagan va o'tishni istamayotgan Eronning katta hududini o'z hukmronligida ushlab turgan ismoiliylarga qarshi katta qo'shin tortdi. Ismoiliylar poytaxti Alamutni qamal qilishga qat'iy kirishdi. Bu qamal 1199- yil kuzida boshlandi. Shaharning taqdiri hal bo'lay deb turgan chog'da Takashga Xorazmdan xushxabar keltiradilar. Bundan g'oyat xursand bo'lib ketgan Takash hujumni to'xtatib, Alamut aholisiga omonlik va tinchlik bag'ishladi va Xorazmga qaytish uchun butun lashkarga farmon berdi.


Xorazmshohlar saroyida to'y.

Takash Xorazmshoh xorazmliklarning o'ta jozibali surnay navosi bilan boshlanadigan to'y-tamoshalarini juda orziqib kutar edi, chunki 1197-yilda katta o'g'li Malikshohdan ajragan edi. Uning Malikshohdan umidi katta edi. U og'ir damlarda otasiga malham bo'lar, harbiy san'at sirlarini egallagan ajoyib sarkarda bo'lib yetishayotgan edi. Bundan

juda qattiq ta'sirlangan Takash uning o'rnini bosishga loyiq nevara berishni Yaratgandan so'rardi.

Nabira shahzodaning otasi Muhammad Sulton, onasi turkman qizi **Oychechak** edi. Xorazmshoh Takash kelini Oychechak va ilk nabirasini tez oyoqqa turishi va sog'lom bo'lib ketishlari uchun hamma imkoniyatlar yaratishni qattiq tayinladi, eng tajribali enaga ajrattirdi. Bularni Takash shaxsan o'zi nazorat qilib bordi. Xorazmshoh sevimli nabirasi Jaloliddin Manguberdi timsolida kelajakda buyuk salohiyat egasi alomatlarini ilg'aydi. To'y asnosida Xorazmning „*faxri*“, ulug' mutafakkir **Najmiddin Kubro**dek buyuk islomiy va tasavvufiy shayx—shayxul Valitarosh yaxshi tilaklar bildirib, go'dak Jaloliddin va saltanat nomiga duolar o'qidi. Shahzodaning komil inson bo'lib yetishishi mas'uliyati ulug' shayx Najmiddin Kubro zimmasiga yuklatiladi. Najmiddin Kubro go'dak Jaloliddinni muborak va tabarruk qo'llariga olar ekan, uning taqdirida buyuklik bilan fojia, qo'shaloq qismat manzarasini anglaydi.

... Saboq yoshiga yetgandan keyin komil inson qilib tarbiyalashni Najmiddin Kubro o'z zimmasiga oladi. Najmiddin Kubro kelajakda dong'i olamga ketadigan, iqboli baland go'dakka alohida mehr qo'ydi. Undan xabar olishni kanda qilmadi. Shahzoda kun-bakun, oyma-oy sog'lom va bag'oyat



Pir-u ustoz va shogird muloqoti.

serharakat bo'lib o'sib-ulg'aya boshladi. 1200- yil 3-avgustda Urganch aholisi vakillari, saroy akobirlari, sarkardalar, yirik ruhoniylar ishtirokida taxtga Takashning o'g'li **Alouddin Muhammad** ko'tariladi. Muhammad Xorazmshohga otasi Takashdan qudratli lashkar qoldi.

Alouddin Muhammad Xorazmshohning katta xotini Oychechakdan Jaloliddin Manguberdi, qolgan xotinlaridan esa (ular Dashti qipchoq sarkardalarining qizlari edi) **Uzluqshoh, Oqshoh, Rukniddin Gursanjiy, G'iyosiddin Pirshohlar** tug'ilgan edilar. Jaloliddin ular orasida katta shahzoda edi. Ular yoshligidanoq hamma sharoitlar muhayyo bo'lgan saroy muhitida, oqila enagalar qo'lida tarbiya topdilar.

Saroydagi eng mashhur olimlar bu maktabni chetlab o'tmas edi. Ular yo qisman, yoxud mutlaq shahzodalarga birlashtirilib qo'yilgan. Ularning har biri o'z mutaxassisligi yo'nalishida izchil saboq berar, bunda ularning umumiy bilim olishlari bilan birga alohida qiziqishlari hisobga olinar, shahzodalar uchun saboqning majburiy egallanishi lozim darajadagi bilim, ko'nikmalari shakllantirilgandi.

Xayr bolalik, salom, chiniqish maktabi.


Shahzodalik ta'lim-tarbiya maktabining bolalik bosqichini o'tagan Jaloliddin Manguberdi chiniqishning eng og'ir va mas'uliyatli bosqichiga qadam

qo'ydi. Demak, bu bolalikning go'zal damlari bilan bir umr xayrlashib, shahzodalarga zarur ilmlarning murakkab va mashaqqatli sir-sinoatli so'qmoqlaridan yurib, kelajakda olingan bilimlarni davlat boshqaruvi amaliyotiga tadbiiq qilish qobiliyatini shakllantirish hamda harbiy ishni mukammal egalashdan iborat edi.

Ilmsiz shahzoda shoh bo'la olmas! Bu hayotning yozilmagan, lekin mantiqiy qonuniyatidir. Hisob-kitob, miqdor va hajmlar haqida bilimlar, o'lchovlar-u, koinot ilmi, bular bo'lajak hukmdor har daqiqada murojaat qiladigan zarur ilm hisoblangan. Sulton yoki podshohning turli sharoitlarda eng murakkab vaziyatdan qutulib chiqishi, jumladan ov, shikorga chiqish, qo'shin bilan kechani-kecha, kunduzni kunduz demay yo'l bosib, adashmasdan belgilangan manzilga yetib borish, yulduzlarga qarab yo'nalish olish kabi ilmlarni bilishi shart edi. Hukmdor mamlakatdagi ishlab chiqarish kuchlari sohalari haqida ma'lumotlarni tahlil qilib, davlatining iqtisodiy quvvati to'g'risida aniq ma'lumotni hamda xalqning ruhiy holatini tahlil qila olishi birinchi darajali ishlardan edi. Buyuk ustoz shayx Najmiddin Kubro Jaloliddin Manguberdini islomiy ma'naviyatning, ma'rifatning keng yo'liga boshlab, uni komillik pog'onasiga yetakladi. Moziy ilmining bo'lajak shoh hayotidagi ahamiya-

tini ham alohida bir mas'uliyat bilan anglatdi. Hukmdorlik madaniyati va ma'naviyatiga daxldor zaruriy ilmlardan boxabar qilishdek ulug' ishonch ham uning zimmasiga tushdi. Shayxning Jaloliddinga muhim o'gitlaridan eng asosiysi — o'z xalqi, Ona-Vataniga mislsiz sodiqlik iymon-e'tiqod mezonini ekanligini anglatishi bo'ldi. Bu o'gitlarni Jaloliddin Manguberdi noyob dur sifatida qalbining eng to'rida hayotining so'nggi daqiqasiga qadar asradi. Xalq, Vatan tuyg'usi hayotining mazmuniga aylandi. Ulug' shayx xalq, Vatan tuyg'usini uning ruhiga singdirdi, sodiqlik mash'alini yoqdi, dushmanlarga mislsiz nafrat hissini alangalantirdi. Xuddi shu tuyg'u yosh Jaloliddin Manguberding Vatanga mislsiz sadoqatini shakllantirdi. Shahzoda harb-u zarb ilmi va unda jismoniy komillikning falsafiy-axloqiy mavqei-ni shayx Najmiddin Kubrodek pir-u ustozidan betakror bir holatda saboq oldi. Shayx fikricha: „*Shoh Vatanning bosh qo'riqchisi, davlat tayanchi, ulus himoyachisi hamda adolat ustunidir. Vatan osoyishtaligini ta'minlashda harb-u zarb ilmi muhim ahamiyat kasb etadi*“.

Bu amaliy chiniqish maktabini o'z davrining mislsiz sarkardasi, qilichbozlik va nayzabozlikda tengsiz pahlavon, harb ilmining chuqur bilimdon amakilari va ustoz **Temur Malik** hamda **Aminamulkdan** o'rgandi. Qariyb yetti yil 11 yoshdan 16 yosh-



Jaloliddin Manguberdi harbiy mashqda.

gacha harbiy san'at ilmi va turli sharoitda jang olib borish malakasi sir-sinoatlarini ham xuddi shu ikki buyuk sarkarda qo'l ostida egalladi. Temur Malik dushmanga ruhiy ta'sir etishdan tortib, yog'iyga qarshi qo'shinni jang oldidan saflash usullarini miridan-sirigacha saboq berdi. Dushmanning ko'p sonli qo'shiniga qarshi kam sonli askar bilan zarba berish, jangchilarga g'amxo'r bo'lish, qanday sharoitlarda piyoda qo'shinni jangga tashlash-u, otliq g'animlarning dahshatli hujumlarini qaytarish harbiy san'atidan chuqur bilim berdi. Zaxira kuchlarni qaysi daqiqalarda jangga olib kirish usuli ham chetda qolmadi. Eng muhimi, shoh va shahzodaning shaxsiy botirligi barchaga ibrat bo'lishi g'alabani qo'lga kiritish omillaridan biri ekanligini Temur Malik qayta-qayta uqtirib bordi. Xalq tinchligini ta'minlash, Vatanni farovon, ozod ko'rishning sharti harbiy mashqda qancha og'ir bo'lsa, g'alabaning muhim omili ana shu mashaqqatlarga bardosh berishdadir, deb bildi. Shahzodalar mashqlardan so'ng Amu bo'yida dam olar edilar. Bir kuni Uzloqshohning sho'xligi tutib daryoga kesak otdi. Jaloliddin ukasidan xafa bo'lib: *Eh, ukajonim. Axir bu daryo bobolarimizga rizq-ro'z bergan, ularni to'ydirgan, yov kelsa undan asragan, qalqon bo'lgan, unga otilgan tosh, Vatanga, ajdodlarga, xalqqa otilgan tosh emasmi, ulug' pir va shayximiz*

Najmiddin Kubro bobomizning sabog'ini unutdingmi, Vatan tuprog'ini ko'zimizga surtishimiz, suvi va osmonini muqaddas bilishimiz kerak deb yaqindagina aytgan o'giti nahot u qulog'ingdan kirib bunisidan chiqqan bo'lsa? — deb qattiq koyigan. Bu uning Vatani ni naqadar muqaddas sajdagoh kabi sevganligining belgisi edi. Haqiqatan ham Vatanni, el-ulusni sevishni buyuklarimiz Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Temur Malik kabi bahodir ajdodlarimizdan o'rganishimiz lozim. Ular Vatanga sadoqat ramzlaridir. Jaloliddin Manguberdi va yuqorida nomlari zikr etilgan buyuklarimiz so'zi va ulug' ishlari bilan buni isbotladilar.

Sarkardalik intihoni va iik g'alaba.

Nihoyat, 16 yoshga endigina qadam qo'yayotgan Jaloliddin Manguberdiga otasi Xorazmshoh Muhammad o'z qo'shinining zarbdor o'ng qanot, ya'ni barong'orini ishonib topshiradi.

Hali o'spirin bo'lishiga qaramay yosh sarkarda yoshiga nisbatan ulug' va barvasta gavdali, jismi cho'yandek og'ir, chayir va shiddatkor edi. U g'animiga lochindek tashlanib, tashabbusni o'ziga tortib olish, raqibni dog'da qoldirish usulini mukammal egallagan, sarkardalik mahoratini atroflicha o'rganib olgan edi. Muhammad Xorazmshoh Jaloliddinni o'ng qanot qo'shin qo'mondoni qilib

tayinlagandan ko'p o'tmay, qoraxitoylarga qarshi kurashni yakunlash uchun o'g'liga o'tlanish haqida farmon beradi. Jaloliddin qipchoq otliq qo'shini bilan bir hamlada Jand shahrini ishg'ol qiladi. So'ngra otasi boshchiligidagi markaz qo'shiniga yaqinlashib, qozoq cho'llari qa'rida yashirinib yurib, kutilmaganida barxanlar ortidan o'tilib chiqib zarba berishga odatlangan qoraxitoylarning jangari urushqoq qismlarini izlashda davom etadi.

Voyaga yeta boshlagan Jaloliddin Manguberdi eng xavfli va og'ir jangda o'zining iste'dodli, qo'rqmas, temir irodali, har qanday sharoitda sovuqqonlik bilan jangni boshqarishga qodir sarkarda ekanligini ko'rsatdi. Uning jangda shaxsiy dovyurakligi lashkarga katta ruhiy kuch berar, yovga qarshi nafrat bilan tashlanishi, o'limlarni dog'da qoldirib, jangning qoq markazida turib o'nlab yovni qilich damidan o'tkazishi qo'shinning bir kuchiga o'n kuch bag'ishlar edi. Lashkar Jaloliddin Manguberdi siymosida afsonaviy bahodir, dovyurak va shiddatkor, shijoatli siymoni ko'rdi. Bu qo'shin uchun mislsiz baxt, muzaffarlik umidini kuchaytiruvchi quvvat edi. Ushbu ilk g'alaba Xorazm qo'shinida ishonch tuyg'usini shakllantirdi. Jaloliddin Manguberding bemsil qahramonligi haqidagi xabar na faqat xorazmshohlar hududigagina ovoza bo'lib qolmay, balki Chingizxon qulog'iga ham borib yetgan edi.

Haqiqatan ham ushbu jang Xorazmshohning to'ng'ich o'g'lida buyuk sarkardalik qobiliyati mavjudligini isbotladi, bu Xorazm davlati osmonida harbiy san'at sohasida porloq yulduz paydo bo'layotganligining yaqqol dalili bo'ldi. Lekin Xorazmshohning ushbu qisqa jangda tashabbusni boy berib, Jo'ji tomonidan qurshovga olinishi, uning kelajakda bo'ladigan Xorazmshohlar davlati taqdiriga daxldor janglarda mag'lublik tamg'asi ayovsiz bosilishidan nishona edi. Qattol yov bilan olishuvga na taktik, na strategik jihatdan tayyor emasligi, hukmdor va sarkarda sifatida ham quyoshi botayotganligining isboti edi. Xuddi shu narsa dunyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etgan davlatini tanazzulga olib keldi.


Turon osmonini qora bulutlar qoplamoqda.

Chingizxon Xorazmshohning asl maqsadlaridan xabardor bo'lgach, zimdan juda katta harbiy tayyorgarlik ishlarini boshlab yubordi. Bu vaqtga kelib uning Chig'atoy, O'g'doy va To'li kabi o'g'illari ham iste'dodli, botir sarkarda darajasida edilar. Ular o'zlarining mislsiz jangchi va sarkarda ekanliklarini Xitoyning toshdek mustahkam qal'a, shaharlarini zabt etishda namoyon etdilar. Uning harb sinovidan o'tgan o'ta chayir, xoqon buyrug'ini bajarish uchun

o'limni pisand qilmay faqat oldinga tashlanib, dushmani, raqibining tinkasini qurituvchi minglik, o'n minglik qo'shini, iste'dodli yuzlab sarkardalari bor edi. Ularning asosiy kasbi, maqsadi qirg'in-barot urush, unda g'alabaga erishish, shuhrat shohsupasiga ko'tarilib, xoqon tahsini va ishonchiga sazovor bo'lish hayotining mazmuniga aylangan edi. Ular shahar va kentlarning osoyishta hayotini sanoqli daqiqalarda naq jahannam va do'zaxga aylantirib yuborish, jizg'anak bo'layotgan jonzotlarning ohvohlarini sog'inib, qonga tashna bo'lib yashardilar. Urush, qirg'in ular uchun bayram, mol-mulk, obro'-e'tibor topish, mansab pillapoyalariga ko'tarilish vositasi edi. Mo'g'ul armiyasi qahriga uchraganlarga ajal, ofat, yovuzlik timsoli ediki, bu qahrdan na go'dak, na chol-u kampir, na homilador ayol omonlik topmas edi. Chingizxon Xorazmshohlar bilan bo'ladigan urushga ikki yil kechakunduz tayyorgarlik ko'rdi.

**Harbiy mashvaratda Jaloliddin Manguberdi
so'z so'raydi.**

Harbiy mashvarat kun tartibida bitta masala—mamlakatga Chingizxon lashkari tomonidan boshlanadigan dahshatli hujumni qaytarish masalasini ko'rib chiqdi. Mashvaratni Muhammad Xorazm-



Muhammad Xorazmshohning so'nggi vasiyati: „Jaloliddin Manguberdi,
mana buyuk Takash boboning qasos qilichi. Dushmanni qir,
Vatan, el-yurtni dushmandan xalos et!“

shohning o‘zi boshqardi. Uning muhokamasi erta tongdan yarim tungacha davom etdi.

Nomdor sarkardalar so‘z olib Chingizxon hududiga bosib kirib, urush harakatlarini Xitoy va Mo‘g‘ulistonda olib borish g‘alaba keltirishini yoqlab chiqdilar. Bunday harbiy harakat Xorazmshohlar mamlakatini vayronalikdan saqlab qolishiga garov bo‘lajagi asos qilib olindi. Tushgacha davom etgan bahsdan keyin bu taklif rad etildi. Shu bilan harbiy kengashning ikkinchi davrasi boshlandi. Unda birinchi bo‘lib davlat arbobi, kuchli siyosatchi va harbiy nazariyotchi olim Shahobiddin al-Xivaqiy so‘z olib, birdan-bir to‘g‘ri fikrni ilgari surdi. Uning harbiy strategik rejasiga ko‘ra turli hudud, shahar va qal‘alarda joylashgan 400 ming kishilik lashkarni bir musht qilib Xorazmshohlar hududi sharqiy chegaralarida to‘plab Chingizxon qo‘shini yo‘lini to‘sis va charchab, cho‘llar hamda tog‘-utoshlardan o‘tayotib holdan toygan dushman qo‘shiniga dam olish imkonini bermay, unga zarba berish eng maqbul yo‘l ekanligini bildirdi. Ushbu uzoqni ko‘rib qilingan to‘g‘ri tadbir ham rad etildi.

Nihoyat, tajribali sarkardalar fikrini tinglab, ularning fikri inobatga o‘tmaganligiga guvoh bo‘lgan Jaloliddin Manguberdi mashvaratdagi sukunatni buzishga jur‘at qilib, otasi Muhammad Xorazmshohdan so‘z so‘raydi.

Juda ko‘p qipchoq amirlar Jaloliddin Manguberding ovozini eshitishni istamadilar. Saroydagi ko‘tarilgan g‘ala-g‘ovurni tinchitgan Xorazmshoh o‘g‘li Jaloliddin Manguberdi maslahatiga e‘tiborsizlik ohangida istar-istamas so‘z berdi.

Biroq Jaloliddin o‘ziga bildirilayotgan luqma va nopisandlikni go‘yo eshitmaganday, ishonch va qat‘iyatlik bilan harbiy rejalarini ilgari sura boshladi. U dastlab mo‘g‘ullarning qo‘shini dahshatli, shuningdek hujumkorlik jangida naridan-beri raqib bardosh berolmaydigan ustunliklarga egaligi, mo‘g‘ul jangchilarining o‘limni pisand qilmay oldinga tashlanishi har qanday lashkarga zarba beradigan barcha vositalarga egaligini qisqa bayon etadi. So‘ngra ularning taktik mahorati, pirovard g‘alabani ta‘minlashga yo‘naltirilgan jasur va aqlli sarkardalari borligiga harbiy mashvaratdagilarning diqqatini tortib, ularni zarbaga uchratishning aniq yo‘llarini, lo‘nda harbiy nazariyot va amaliyotni, ko‘pni ko‘rgan sarkardalardek dona-dona tarzda bayon qiladi. So‘ngra asosiy fikrga o‘tish chog‘i o‘rog‘lik bir narsani qo‘liga olib uni ochadi. Bu al-Xorazmiy tuzgan dunyo xaritasi bo‘lib, undan mo‘g‘ullar seldek yopirilib keladigan yo‘llarni bir-bir ko‘rsatadi. Ehtimol tutiladigan yo‘llar va yo‘nalishlarda soqchilik qismlarni kuchaytirib, ulardan aniq xabarlarni oladigan xabargirlarni eng tezchopar otlar bilan



Temur Malik — mo'g'ul bosqinchilariga bo'ysunmagan
mag'rur sarkarda.

ta'minlab, ular mo'g'ullar hujumining qaysi tomondan kelayotganligini zudlik bilan yetkazib turishini ta'minlash zarurligini bildirdi. So'ngra dushmani chalg'itib, katta cho'l hududlaridan o'tishlariga yo'l qo'yish, barxanlar orasidan yelday uchib orqa va ikki yon tomondan zarba berish, tashabbusni qo'lga olib, uni g'alabagacha ushlab turish hamda raqiblarni qurshab olib qirib tashlash eng maqbul yo'l ekanligini aytadi va agar lashkar izmimda bo'lsa, bu rejani o'zim amalga oshirishni zimmamga olaman, deydi. Bu 19 bahorni qarshilagan sarkarda Jaloliddin Manguberding mushkul mas'uliyatni ishonch va qat'iyat bilan o'z zimmasiga olishidagi jasurona harakati bo'ldi. O'zi markazda, barong'orga ustozini Temur Malik hamda jarong'orga amakisi Aminalmulkni qo'mondon qilib tayinlash, qipchoq sarkardalari qo'shinining o'ng va chap tomonlarini qo'riqlaydigan zaxirada jangovar holatda turishi kerakligini aytdi.

Jaloliddin Manguberding qat'iy taklifi o'tmadi, uning yuragini qandaydir ko'zga ko'rinmas maxluqot chaqqanday bo'ldi. Nachora, taqdir nimani ravo ko'rsa, u shunga tayyor, bu tushkunlik oldida taslim bo'lish degani emas. U sarkarda, shahzoda, yurt egasi. Qalbining to'rida avaylab saqlagan Vatani, el-yurtiga sadoqat tuyg'usi bor. Bu tuyg'u muqaddas, bu tuyg'u uning yuragi bilan



Ustoz Temur Malik jang-u jadal bilan Jaloliddin Manguberdi safiga qo'shilish uchun Sirdaryo quyi oqimi tomon suzib bormoqda.

ihota qilingan, qonida ufurib aylanib turibdi. Qo‘lida shahzodalik qilichi mustahkam ekan, yaratgan tomonidan ato qilingan or-nomus tushunchasi uning vujudiga singib ketgan, so‘nggi nafasigacha uni himoya qiladi. Unga yashash, ulg‘ayish imkolnini bergan Vataniq sodiq qoladi. Ana shu tuyg‘uga suyanib, o‘zini, yurtini tanazzulga olib boradigan reja tuzgan ota saroyidan otilib chiqqan Jaloliddin Manguberdi qorabayir otiga shaxd bilan minib, jilovini Afg‘on sari burdi. Cho‘l qo‘yniga shamol yanglig‘ kirib borayotgan sarkardaning ketidan o‘nga yaqin sadoqatli soqchilari izma-iz ketishdi. Bu voqea 1218-yil kech kuz faslining ayozli — qirovli kunlarida sodir bo‘lgan edi.

Najmiddin Kubro — vatanparvarlik timsoli.

Jaloliddin Manguberdi armoniga ma’naviy otasi — piri Najmiddin Kubro darmon bo‘ldi.

...Buyuk shayx Jaloliddin Manguberdini bag‘riga bosar ekan, uning butun vujudida, dilida olov bo‘lib aylanayotgan Ona shahrini himoya qilish o‘rniga qaysidir hududlarda sarson-sargardonlikda o‘tadigan kunlardan vijdonan qiynalayotganligini chuqur his qildi. Ne iloj, hozir kuch qipchoqlar va ularga ergashganlar tarafida. Jaloliddin shaharni tark etishi kerak. Boshqa yo‘l yo‘q. Najmiddin Kubro

shogirdiga armon bo'lib, yuragida tosh bo'lib qotgan bu ruhiy azobga malham va darmon bo'lishni ko'ngilga tugdi. Oqibat bu haqiqatga aylandi. Umrida o'nlik lashkarini boshqarib ko'rmagan ulug' donishmand Xorazmshohlar davlati poytaxtini himoya qilish va mo'g'ullarga qarshi qahramonona jangga boshlovchi oliy bosh qo'mondon — sarkardaga aylandi. U „*Yo Vatan, yo sharaflı o'lim!*“ shiori bilan ulug' muhoriba tadorigini boshlagan paytda Shayxul Valitarosh 76 yoshda edi. Uning chaqirig'idan Sharqning buyuk va ulug'vor shahri aholisi bir yoqadan bosh chiqardi, ari uyasi buzilgandek guvilladi, qo'zg'aldi.

Bu mashhur shaharga alohida e'tibor bergan Chingizxon uni tezda olishga shoshilmadi. Uni olish oson emasligini yaxshi bilgan Chingizxon dastlab unga yordamga kelishi mumkin bo'lgan barcha joylarni egalladi. So'ngra bo'g'ma ilondek uni doirasimon o'rab olish va tiz cho'kishga majbur qilishga ahd qildi. Shuning uchun qo'shiniga 1220 — 1221-yil qishida Amudaryoning quyi qismida qishlashni amr qildi. Movarounnahr shahar va qishloqlaridan bosib olingan boyliklarni minglab tuyalarda poytaxti Qoraqurumga jo'natish bilan mashg'ul bo'ldi. Qolganlarini lashkariga sovg'a va jang-u jadaldagi xizmatlari evaziga mukofot tarzida ulashdi. Xorazmshohlar poytaxtini zabt etuvchi lashkariy qismlarga



Shayxul-Valitarosh Najmiddin Kubro bosqinchi mo'g'ullar
qo'shining tug'iga changal solmoqda.

juda katta miqdorda mukofot va in'omlar ajratilganligini e'lon qildi.

Chingizxon xorazmshohlar poytaxti uchun bo'ladigan olishuv bu vatanparvar xalq diyorining boshqa biror shahri, qal'asi uchun bo'lgan jangga qiyos qilib bo'lmas darajada shafqatsiz kechishini his etdi. Uning talabi rad etildimi, bas yovuz xoqon na chol, na kampir va na go'dak, umuman, yosh-u qariga shafqat qilmaydi.

Najmiddin Kubroning muridlari shayx boshchiligida qurollanib, javonmardlar qismini tashkil qildilar. Kubroviya tariqati a'zolarining bu lashkariy qismini Vatan uchun o'lishni bayramona hol tarzida qabul qiluvchi milliy qismlar deyish joizdir. Najmiddin Kubroning atrofiga birlashgan muridlar Chingizxon qo'shiniga jahannam yo'lini ko'rsatishi muqarrar ekaniga farosati yetgan xoqon ulug' shayxni bu yo'ldan qaytarish va xohlagan tarafga muridlarini olib chiqib ketishiga kafolat berishini bildirib, o'z elchisini yo'llaydi. Ammo shayx Najmiddin Kubro xoqon talabini qabul qilmaydi. O'zini haqoratlangan his qilgan Chingizxon Ko'hna Urganchni zudlik bilan zabt etishga katta o'g'li Jo'ji boshchiligidagi qo'shinni ham jalb qilib, mudo-faachilarning qarshiligini sindirmoqchi bo'ladi. Jo'ji qo'shini ayovsizligi, shafqatsizligi va hujumi davomidagi vahshiyona harakatlari bilan nom qozongan



Najmiddin Kubro boshchiligidagi Xalq lashkari Ko'xna Urganch mudofaasida. „Yo Vatan yo sharafli o'lim!“ shiori ostidagi dahshatli manzara.

edi. Uning lashkari yovuzlik timsoli bo'lib, go'daklarni nayzalariga ilib, g'ayri insoniy vahshiyliklar ko'rsatishgan. Hanuzgacha yig'lagan bolalarni yig'idan to'xtatish uchun: *Ana, jo'ji-bo'ji kelayapti*, — deb qo'rqitish odati Xorazm vohasi aholisi orasida davom etib kelmoqda. Bu iboraning folklor janri sifatida qo'llanishining o'ziyoq Jo'ji lashkarining vahshiyona harakatlari qanday bo'lganligidan dalolatdir.

Jo'jidek dahshatli mo'g'ul lashkarboshisining poytaxt ostonalariga kelishi shahar mudofaasi tashkilotchilaridan biri, qipchoq sarkardasi Xumor Teginni vahimaga tushiradi. U payt poylab shahar darvozasini ochib berib, o'zi mo'g'ullarga taslim bo'ladi. Bundan g'azablangan xalq buyuk alloma Najmiddin Kubro atrofida yanada qattiq jipslashdilar. Uning Vatanni himoya qilish shiori Xorazmshohlar davlatida to'la hukmronlik qildi. U *Vatan uchun o'lish eng ulug' ish ekanini, u dunyoga gunohsiz borishda eng ishonchli vositaligini* mudofaachi xalq ongiga singdiradi. Natijada xalq lashkarining har bir a'zosiga Vatan uchun kurashib jon fido etish faxrli va sharaflı burch bo'lib qoldi. O'limni mardona qarshi olish, undan qo'rqmaslik haqidagi ulug' shayxning falsafiy teran o'gitlari mo'g'ullar berayotgan qurbonlarning sonini keskin oshirib yubordi.

Parvonda ko'tarilgan qasos qilichi.

Ular tengsiz botirlar edi, har birining siynasi po'latdek mustahkam, toshdan ham qattiq edi. Ularga na dubulg'a, na sovut edi darkor. Ularning mardligiga g'alaba edi yor (qadimiy yozishmalardan).

Jaloliddin Manguberdi ashaddiy dushmani Chingizxonning fe'l-atvorini yaxshi bilar edi. Mo'g'ullarga qarshi birlashib kurashish haqidagi qaror sardorlar tomonidan qabul qilinganidan mamnun bo'lgan Sulton Jaloliddin bo'lajak jang musulmon xalqlari taqdirida katta o'rin olishiga qattiq ishonardi. Sarkardalar og'ir janglarda bundan keyin Jaloliddin Manguberдини tashlab ketmaslikka, yog'iylar bilan omonsiz jang olib borishiga qasam ichdilar. Bu birlashish Jaloliddinning kuchiga kuch qo'shdi.

Birlashgan qo'shin bilan bo'lajak jang tadorigi ko'rildi. Jaloliddin sardorlarni mo'g'ullar harbiy taktikalari va hujum usullari bilan tanishtirdi. Yagona qo'mondonlikka bo'ysunish zarurligi, musulmonlar birligi g'alabani ta'minlash garovi ekanligini uqtirdi. Sardorlar Jaloliddinning har bir buyrug'iga so'zsiz bo'ysunajaklarini e'tirof etdilar.

Ushbu o'ta muhim masala ijobiy hal bo'lgandan

2—3 kun o‘tar-o‘tmas ma‘lum joylarga qo‘yilgan kuzatuvchi xabargirlar Sulton Jaloliddinga mo‘g‘ullarning katta qo‘shini bostirib kelayotganligini bildirdilar.

Jaloliddin birlashgan qo‘shinni jamlab, zudlik bilan jangga tayyorlandi. U Temur Malik, Aminalmulk va afg‘on sardorlari bilan qisqa harbiy mashvarat o‘tkazib, unda Parvon dashtidagi keng ochiq maydonni egallab, o‘sha yerda yog‘iylar bilan hal qiluvchi jang qilishni lozim deb topdi. Har bir sardor va sarkardalar lashkari uchun jang boshlaydigan qulay marra belgilandi. Jaloliddin Manguberdi sarkardalar bilan Parvon maydonini sinchiklab ko‘zdan kechirib, uning past-balandi, jug‘rofiy — tabiiy holatini o‘rganib chiqdi. Otliq va piyoda qo‘shinlar jang qiladigan joylar aniqlandi. Temur Malik, Aminalmulklar ham qo‘shinni to‘g‘ri joylashtirish yo‘lida o‘z maslahatlari bilan yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishdi.

Jaloliddin Manguberdi muhoraba oldidan qisqa, ammo ta‘sirli nutq so‘zladi: *„Birodarlar! Aziz vatandoshlarim, bugun vatan va jafokash xalqimiz bizlarga umid ko‘zlarini tikib turibdi. Qasosga tashna yarog‘imiz kuchi bilan dushmanni qirib tashlaylik!“*

Jaloliddin Manguberdiga qadar dunyoda sarkardalar, shohlar ko‘p o‘tgan, ammo uningdek o‘limlarni dog‘da qoldirgan sarkarda va shoh kam



Jaloliddin Manguberdi mo'g'il bosqinchilarni shavqatsiz qirmoqda.

bo'lgan. Podsholar jangni ko'pincha harbiy qarorgo-
hida turib boshqarganlar, kuzatib turganlar. Jalolid-
din Manguberdi esa mo'g'ullarga qarshi o'n bir yil
kurash maydonidan chiqmay, barcha janglarda
birinchi bo'lib dushman ustiga ot soldi. Qo'shin
uning lochin singari yeldek uchib borishi, bobosi
Takashdan qolgan Damashq po'latidan yasalgan
qilichini havoda o'ynatib, dushmanga omonlik
bermaydigan bemisl kuch bilan harakat qilayotgan-
ligidan ruhi ko'tarilib, dushman hisobsiz bo'lishiga
qaramay g'alabaga qat'iy ishonch bilan oldinga
tashlanardi. Jaloliddin Manguberdi jangdan jangga
to'lqinlanib borar, unga qandaydir aql bovar qilmas
afsonaviy kuch quvvat bag'ishlar, erta tongdan
boshlagan jangni to qosh qorayguncha, dushman
holdan toyib yiqilguncha davom ettirishga kuch
topar, goh o'ng, goh chap qo'li bilan uravergani-
dan panjalari dag'alilashib, temirga o'xshab qolgandi.
Jaloliddinni qo'lga tushirishga shaylangan pahlavon
mo'g'ul bahodirlari unga qilich, nayza, o'q-yoy
bilan zarba berishga uringani, uzoqdan turib arqon
uloqtirganlarini, yog'iylarning shiddatli hujumini
qaytarish uchun arslondek tashlanishini ko'z
oldimizga keltirsak, har daqiqa uning hayoti qil
ustida turganligini his qilishimiz qiyin emas. Shu bois
Jaloliddin mardlar mardi, bahodirlar bahodiri,
jangda sherlar sheri edi. U mo'g'ullarning hujum-

larini daf qilib, tobora yog'iy qo'shini ustiga tashlanar va ularning mustahkam markaziga sanchilib kirib, bu tirqishni o'pqonga aylantirardi. Nihoyat, yog'iy qo'shinini qoq ikki qismga bo'lib tashlab, kuchini zaiflashtirardi. So'ngra har birini alohida-lohida qirib tashlardi. Parvon jangigacha ham Eron va Xurosondagi qator shahar va viloyatlarda harakat qilayotgan mo'g'ullarning xuddi shu tarzda dodini bergan edi. Uning jasoratga to'la hayoti va kurashi bois nomi musulmon Sharqida afsonaga aylandi. Uning sarkardalik salohiyatini ashaddiy dushmani bo'lgan mo'g'ullarning ko'zga ko'ringan mashhur sarkardalari ham e'tirof eta boshladilar.

Parvon jangi esa Jaloliddin Manguberdi nomini afsonaviy qahramon darajasiga ko'tardi. Sultonlik kamari belda ekan, bobosi'ning po'lat qilichi keskir ekan, intiqom janglari muqarrar davom etadi. Vattanning, el-ulusning bor umidi undan, sher o'g'lon Sulton Jaloliddindan. U xalq orasida **mardlik** va **kurash timsoliga** aylandi.

„Qoraqum yo'lbarisi“.

Chingizxon nomdor sarkardalaridan Shiki Xutuxi va Qayqur no'yondek mohir, qilni qirq yorib, xoqon topshirig'ini ziyoda bajarib kelgan lashkarboshilarining bu safar Parvon jangida sharmandalarcha mag'lubiyatga uchraganligini eshitib g'azab



„Qoraqum yo‘lbarsi“ — Jaloliddin Manguberdi jangda.

otiga mindi. Bekchak va Timqur no‘yonlarning Jaloliddin Manguberdi qilichi zarbini tatib ko‘rib, Jaloliddin Manguberдини „Qoraqum yo‘lbarisi“ deb atab, bundan to‘rt oy avval xoqon oyoqlari oldiga kelib tiz cho‘kib, iltijo qilganlarining sababini endi tushundi. Ularni qo‘rqoqlikda ayblab, yasoqqa topshirgan edi. Endi esa necha martalab dushmanni dog‘da qoldirgan, Xitoyning ne-ne sarkardalarini tiz cho‘ktirgan Shiki Xutuxi va Qayqur no‘yon kabi sarkardalari uning oldida tiz cho‘kib, xoqonning dahshatli hujumini kutib turibdi. Chingizxon „jazokor“ qo‘shin deb nom bergan dovrug‘li lashkari ajdaho domiga tushgan o‘ljaday barbod bo‘ldi. Ular Parvon jangidan so‘ng kalxat va yirtqichlar oylab baham ko‘radigan yemga, yemishga aylandi. Ularni „Qoraqum yo‘lbarisi“ — Jaloliddin g‘ajib tashlagandi. U qo‘lga olinmas ekan, xoqonning halovati yo‘q, bo‘lmaydi ham.

Endi Chingizxon sher Jaloliddinga bas keladigan kimni, qaysi sarkardasini jangga yo‘llasin? To‘rt o‘g‘li — to‘rt yirik sarkarda, qaysi biri ishonchni oqalaydi. Jo‘jimi, Chig‘atoy, O‘g‘doymi yoki To‘lixon? Ularni o‘n minglab lashkar bilan ta‘minlab Jaloliddin Manguberdiga qarshi yuborish, halokatga ataylab yo‘llash bilan teng. Chingizxon Jaloliddin Manguberdining birin-ketin erishayotgan g‘alabalarini hazm qila olmadi. Tolliqondagi dala qarorgohida barcha o‘g‘il va sarkardalarini yig‘ib kengash o‘tkazdi,

ularga g‘azabnok ko‘zlarini tikib: „*Kim Jaloliddinni tutib keltira oladi?*“ — dedi. Qarorgohda yig‘ilgan sarkardalarning birortasidan „*Men*“ degan jur‘atli tovush chiqmadi. Negaki, bu qaltis daqiqalarda va‘dani berib, uddasidan chiqa olmaslik o‘lim bilan o‘ynashishdek gap edi. Chingizxon savdo chiqishini ataylab uzoq kutdi. Endi xoqon oldida ularning tili qisiq bo‘ladi. Shularni o‘ylagan Chingizxon Jaloliddin Manguberdini qanchalik yomon ko‘rishiga qaramay, ushbu daqiqalarni yaratib bergan „*Qoraqum yo‘lbarsi*“ning dami va imkoniyatidan g‘oyibona mamnun bo‘ldi. Jimlik sukunatini xoqonning o‘zi buzib: „*Jaloliddin o‘ta xavfli g‘anim, u sherlar sheri. „Jazokor“ qo‘shinimni mag‘lub qilib buni yana bir karra tasdiqladi. Endi jangga o‘zim boraman, uni tiriklayin ko‘rmoq istayman. Bunga erishmoq uchun butun Chinmochin lashkrimni ishga solaman. Farmonbardor diqqatiga! Eshit! Farmon xoqoni Chingizxon Osug‘ay bahodir o‘g‘li: izmimdagi butun qo‘shin Tolloqon dashti kengliklarida o‘n kun muddatda jam bo‘lsin. O‘g‘illarim: Jo‘ji, Chig‘atoy o‘ng qanotim, O‘g‘doy va To‘li chap qanotimni egallasin! Tuman sarkardalarim orqa tarafimdan joy olsin. O‘n minglik maxsus bahodirlardan iborat lashkarim O‘rdugohim huzurida hozirlansinlar! Jo‘nashga da‘vat etuvchi bosh tug‘im ko‘tarilishi va dovulim chalinishini kutsinlar!*“

Aytilgan o‘n kun muddatda Tolliqondagi katta kengliklar bo‘ylab Chingizxonning turli tomondagi son-sanoqsiz lashkari yig‘ila boshladi, lashkar sig‘may ufqqa tutashdi. Chingizxon o‘z qo‘shinini yaqin orada bunday holatda bir joyga to‘plamagan edi. Chingizxon dunyoni zabt etishga qodir lashkarining vajohatini ko‘rib ko‘ngli ancha taskin topdi. Jangga jo‘nash belgisini bildiruvchi bosh tug‘ ko‘tarilgach, ketidan dovullar gumburlab chalindi. Chingizxonning salkam 300 minglik qo‘shini Tolliqon maydonini zir titratib, temir oqim yanglig‘ belgilangan yo‘nalish bo‘ylab olg‘a qarab siljidilar. Chingizxon qasos alamida yondi, o‘tgan joydan hayot uni o‘chdi. 300 ming qo‘shin xoqon buyrug‘i bilan shamol tezligida yo‘l bosib, Sulton Jaloliddin Manguberdi ketidan tinimsiz ta‘qib qilib, Sind daryosiga yaqinlashganda unga yetib oldi. Bu joy Nilab deb atalardi.

Nilabdagi qiyomat.

Jaloliddin o‘zi uchun noqulay bo‘lgan qopqon holatidagi bu joydan tez chiqib ketishga intildi. Ammo daryoning kechib o‘tishga qulay joylarini mo‘g‘ul qo‘shini egallab oldi. Natijada Jaloliddin Manguberdi qo‘shinini Sind daryosining eng xavfli tezoqar yeridan sollar yasab daryoning narigi sohiliga o‘tkazmoqchi bo‘ldi. Eng mard va botir jangchi-



Nilab jangi. Jaloliddin Manguberdi Chingizxon
bosh qarorgohiga yorib kirgan lahzalar.

lar tanlanib, zudlik bilan sollar yasalib, dastlabki kechib o'tuvchilar sifatida narigi qirg'oqqa suzishni boshlashi bilanoq quturgan daryo sol va askarlarni o'z domiga tortib ketdi. Solga chiqqanlardan hech kim omon qolmadi. Jaloliddin Manguberding bu umidi ham yo'qqa chiqdi. Jaloliddin yutag'on daryoning vahimali ko'pirib, hayqirib oqishiga nigohini qadadi. Orqada ashaddiy dushmani qattol Chingizxonning o'zi uni ta'qib qilib kelmoqda. Shunday ham bo'lar ekanki, yovuzlik adolatga to'qnash kelganda ezgulik butun imkoniyatlardan ajralib chorasiz qolarkan. Ezgulikning hamma eshiklari berkitilib, yovuzlik imkoniyatlari soatma-soat, daqiqama-daqiqa kuchayaverar ekan. Xuddi tabiat ham adolat, ozodlik uchun kurashuvchilardan yuz o'girib, yovuzlik bilan ittifoq tuzib olgandek. Nahotki, u haqiqat uchun kurashuvchilar zarariga xizmat qilsa!? Daryo Jaloliddin Manguberding 50 mingdan ortiq qo'shinini afsonaviy maxluqday yutib yuborishga shay. Jaloliddin daryodan kechib o'tib, ko'plab jangchilarini halok qilganidan ko'ra, mo'g'ullar bilan olishib shahid bo'lishni afzal bildi. U ming xil azob-uqubatli savollar va yutag'on daryo girdobi qarshisida xayol surar ekan, mehribon onasi Oychechak xayol og'ushiga g'arq bo'lgan o'g'lining yelkasiga mehr bilan qo'lini qo'ydi. Ona, shoh o'g'lining yelkasi garchi mislsiz

baquvvat bo'lsa-da, shu damlarda Vatan, el-
ulusning mas'uliyat yuki tog' kabi ezayotganligini
his qildi. Jaloliddin Manguberdi yog'iy-larga qilich
uraverib qadoq bo'lib ketgan baquvvat qo'llari bilan
onasi Oychechakni bag'riga oldi. Ona-o'g'il dunyo
urho-ur-laridan bir necha daqiqa holi bo'lib, bir-
birlari bilan mehr ummonida g'arq bo'lishdi.
Ularning bu mehri oldida Sinddek qudratli daryo
ham, Chingizxonning bosib kelayotgan kuch-
qudrati ham kichik va ko'rimsiz edi. Onaning buyuk
va qudratli mehri bilan farzandi Jaloliddin Mangu-
berdining onasiga bo'lgan behudud mehri qo'shib,
mujassam topgan edi. Onasi Oychechak o'g'lining
yuziga yuzlarini bosib, bag'riga tortib: „*Sendek far-
zandni tarbiyalaganimdan baxtliman, roziman,
bolam. Oltin boshing omon bo'lsin, o'g'ilginam! Iloyo
qasd qilganlar past bo'lsin, Yaratganning o'zi seni
panohida asrasin, jon o'g'lim. Buyuk bobolaring
ruhlari madadkor bo'lsin, ilohim*“, — deya Jaloliddin
Manguberdiga tikildi va davom etib: „*Manavi
Takash bobong bergan tumorni ol, uni bobong
beshigingning old tomoniga osib qo'yish uchun
yasatganman, deb bergandi. Bu tumor seni banogoh
falokatlardan asrasin*“. Jaloliddin Manguberdi o'ziga
uzatilgan tumor bilan onasi qo'llarini yuziga bosib
o'pib-o'pib ko'zlariga surtdi. Bu harakatlardan onasi
tushundiki, janglar har qachongidan og'ir bo'li-

shini eslatmoqda. „*Bolam, Chingizxonning o‘zi kelyapti deb eshitdim, shu to‘g‘rimikan?*“ — dedi onazor. „*Ha, onajon, o‘zi kelayotgani rost, uning shundan boshqa yo‘li ham yo‘q*“, — javob qildi Jaloliddin. „*Itidan tarqagan Chingiz o‘ta mug‘ambir yov. Bolaginamning daryodan o‘tib olishiga yo‘l ham, imkon ham bermadi-ya, iloyo yer yutgur*“, deya pichirladi ona.

„*Ona, ortiqcha tashvish tortmang, ana Temur Malik, Aminalmulk sarkardalarim kelyapti. Hozir ular bilan muhoraba qilish rejalarini tuzib olamiz. Siz nevarangiz, suyukli kelingiz yoniga boring, ularning ruhini ko‘taring, ko‘p tashvish chekib, kuyunmasinlar*“, deb Jaloliddin onasini ular uchun ajratilgan maxsus chodirga borishga ko‘ndirdi.

Jaloliddin Manguberdiga xoqonning rejaları ayon edi. Chingizxon xorazmshohlar lashkarini to‘zitib yuborish uchun shamoldek uchqur qo‘shinini uch tarafdin jang maydoniga safarbar etadi. Zarbdor otliq tumanlar Jaloliddin Manguberdi qo‘shinining chap va o‘ng tomonini yengib, so‘ngra qurshovga olishga intiladi. Og‘ir vaziyatdan qutulishning yagona yo‘li bu safar ham Parvondagi yoyandoz harbiy usulini ishga solishdir. Buning uchun otliq askar tumanlarini piyoda qo‘shin holiga keltirish lozim. Jaloliddin Aminalmulk, Temir Malik va boshqa sarkardalariga shu hukmini yetkazdi. Aminalmulk Jaloliddin Manguberdining o‘ng, Temur Malik

lashkari so‘l tomonidan saf tortdi. Markazda Jaloliddin Manguberdi o‘zining asosiy qo‘shinini joylashedi. Mo‘g‘ullar hech bir jangda yarim doirasimon joylashib jang qilgan lashkarni ko‘rmagan edilar.

Chingizxon qo‘shinlarining ruhiy tayyorgarligini oshirish uchun, shuningdek, o‘zida qanday bahodir mo‘g‘ul pahlavoni borligini namoyish qilmoqchi bo‘lib, Jaloliddin lashkari tarafga muhoriba oldidan o‘z elchisini jo‘natdi. Oradan zum o‘tmayoq mo‘g‘ul lashkari tomondan uzun nayza va qalqon ko‘targan sovutga o‘ralgan bahaybat mo‘g‘ul pahlavoni maydon markaziga shaxd bilan ot qo‘yib kirib keldi. Mo‘g‘ul pahlavonining oti ham bunday janglarni ko‘p ko‘rganidan Jaloliddin Manguberdi lashkari tomonga tashlanar, old oyoqlari tuyog‘i bilan tuproqni orqa tarafga kuch bilan sachratib egasiga zo‘rg‘a bo‘ysunar edi. Jang maydonining qoq o‘rtasiga kelib oti jilovini mahkam tortganicha uzun nayzasini boshi uzra shitob bilan tez aylantirib, bor kuchini namoyish qilayotgan bu yog‘iy pahlavon Chingizxonning shaxsiy qo‘riqchi qo‘shini mingboshisi Jalma edi. Jalma ko‘plab janglarda yakkamayakka olishuvlarda har safar Chingizxon buyrug‘i bilan maydonga chiqib, albatta o‘z raqibi ustidan sof g‘alabaga erishar va mo‘g‘ullar lashkari, ayniqsa, unga ixlos qo‘ygan Chingizxonga bemisl shodlik bag‘ishlar, ana shu ko‘tarinkilik ruhi bilan xoqon asosiy qo‘shinini jangga yo‘llardi. Jaloliddin

yaqindagina Parvon jangida mislsiz botirlik ko'rsatib, oddiy jangchilikdan yuzboshilikka ko'tarilgan g'oyat baquvvat, chayir Mahmudbiyga ruxsat berdi-da, unga darhol kuchli saman ot berilishini buyurdi. Sarkardalardan biri darhol o'z oti jilovini Mahmudbiyga tutqazdi. Yuzboshi yengil bir harakat bilan otga mindi. Sul-ton undan qanday qurol bilan jang qilishini so'radi. Yuzboshi Mahmudbiy otasi bilan birga yasagan gurzisi bilan jang qilajagini aytdi. Jaloliddin Manguberdi uning yelkasiga qo'lini qo'yib: „*Zafar yor bo'lsin, Mahmudbiy!*“ dedi. Mahmudbiy dadillik bilan xitob qildi: „*Sultonim, menga arqon ham kerak*“. Jaloliddin Manguberdi tushundiki, u mo'g'ul pahlavonini arqon tashlab, sudrab olib kelmoqchi. Chamasi o'n metr uzunlikda uchi sirtmoq holatga keltirilgan arqon keltirildi. Hamma duoga qo'l ochdi. „*Ol-u oldirma, yigit, Xudoning o'zi yuzingni yorug' qilsin. Ilohi omin*“. O'n minglab jangchilar shu so'zni maydon uzra takrorladilar. Ana shu qudratli tilaklar madadi bilan yuzboshi Mahmudbiy yakkama-yakka jang sari ot surdi. Jalma nayzasini qo'ltig'i orasiga mahkam siqqanicha Mahmudbiy tomonga ot solib kelardi. Xorazm bahodiri Mahmudbiy g'anim nayzasi qalqoniga sanchilar-sanchilmas, gurzisi bilan uni urib yon tomoniga o'tkazib yubordi va ikkinchi hamla bilan raqibi Jalmaning boshini nishonga olib




Mo'g'ul pahlavoni Jalma va Xorazm bahodiri Mahmudbiyning
jang oldi yakkama-yakka olishuvi.

zarb bilan urdi. Jalma qalqonini boshi uzra ko'tarib o'zini himoya qilmoqchi bo'ldi. Biroq Mahmudbiyning kuchli zarbasidan qalqonga urilgan gurzi Jalmaning chap yelkasiga og'ir jarohat yetkazdi. Uchinchi hamlada juda epchillik bilan bir uchi egarga mahkam bog'langan arqonning sirtmoq tomonini mo'g'ul pahlavoni Jalmaning boshi uzra zarb bilan, lekin g'oyat aniqlik bilan otdi va oti jilovini Jalolidin Manguberdi turgan g'ul qo'shin tomonga shiddat bilan burib, tulporiga qamchi bosdi. Baquvvat jonivor arg'umoq old oyoqlarini oldinga ko'tarib kishnaganicha lashkar safi tomon otildi. Bo'yniga tushgan sirtmoqni chiqarib ulgura olmagan bahaybat Jalma ot ustidan yerga ag'anab tushdi. Xash-pash deguncha Mahmudbiy o'lja mo'g'ulni Jalolidin Manguberdi oyog'i ostiga olib kelib tashladi. Sulton lashkarlari tarafidan: „*Ofarin, botir yigit, qoyil!*“ „*Otangga rahmat!*“, „*Barakalla, o'g'lon!*“ — kabi olqish va hayqiriqlardan Nilab larzaga keldi.

Mo'g'ul taraf dahshatli holatdan suv quygandek jimib qoldi. Bu jimlikni xoqonning g'azabli ovozi buzdi: „*Oldingi safdagi o'ng tomon, hujumga, oldingi safdagi chap va markaz tomon, hujumga*“, — deya qichqirdi.

Onasidan, suyakli oilasidan ajralish qiyin bo'ldi, ammo vaqt ziq edi. Xuddi shu payt xabargir ham yetib keldi. Mo'g'ullar hujumi shiddatli tarzda

kuchayib, lashkar Sulton Jaloliddin Manguberdi-ning so‘nggi hukmiga mushtoq bo‘lib turganligini aytdi. U eng yaqin odamlari — jigarbandlarini oxirgi marta bag‘riga bosdi. Onasi Oychechak shunday dedi: „*Mabodo biror kor-hol bo‘lsa, bizdan tashvish tortma, bolam. Dushmanning iflos changalidan ko‘ra o‘lim yuz chandon afzal. Vaziyat taqozo qilsa, mana ajal daryosi. Bu haqda o‘zim xabarchi yo‘llayman. Shoh sifatida darhol hukm qil. Hammamizni daryoga cho‘ktirib yuborsin. Iflos, yirtqich asirligidan ko‘ra mana shu daryo tubi abadiy makonimiz bo‘lsin. Qayta ko‘rishsak, baxtimiz. Mabodo nasib qilmasa, ko‘rishmak mahsharga qolar, bolam*“. Bu vidolashuv tariqasida aytilgan so‘zlar bo‘ldi. Onaning, onaizorning bu so‘zlaridan yuragi otashga aylanayotgan Jaloliddin Manguberdi g‘azab otiga mindi. Shundoq ham qush bo‘lib uchishga shay bo‘lib turgan samaniga zarb bilan qamchi urdi. Qarorgohida uni sabrsizlik bilan kutayotgan Temur Malik, Aminalmulk, Xarpo‘sh sarkardalari oldiga yetib keldi. Osmondan qora quzg‘undek aylanib, jangchilarning oldingi safini izdan chiqarib, qanchasini mayib-majruh qilayotgan tosh seli yog‘ilayotganligi shundoq ko‘rinib turardi. Sarkardalar Sultonning o‘zi ahvolni aniq ko‘rib-bilib turganligi uchun undan qat‘iy hukm kutib sukut saqladilar. Agar vaqt qo‘ldan berilsa, qo‘shin



Chingizxon va uning vorislari boshchiligidagi mo'g'il bosqinchilari Xitoy, Eron-u Turon hamda rus knyazliklarini shavqatsizlarcha talon-taroj qilib bosib olgan edilar.

pashshaday qirilib ketadi. Endi yoyandoz usuli ish bermaydi. Yagona yo‘l — barcha piyodalarni otliq lashkarga aylantirib, Chingizxon lashkariga yalpi hujum qilish. G‘ul qo‘shin, chap va o‘ng qanot — hamma birdaniga yashin tezligida manjanaqlar zich qilib joylashtirilgan joygacha yetib borib, ularni egallab olishi lozim.

Mo‘g‘ul qo‘shini mutlaqo kutmagan holat ro‘y berdi. O‘n-o‘n besh daqiqada farmonga ko‘ra butun lashkar mislsiz tezlikda harakat qilib, yov ustiga ot soldilar.

Chingizxon Jaloliddinning bemisl jasurligidan g‘oyat lol qoladi, garchi eng ashaddiy dushmani bo‘lishiga qaramay, mardligiga ochiqdan-ochiq tan beradi. Butun lashkari va o‘g‘illariga matonat va jaso-ratda tengsiz Jaloliddin Manguberdidan o‘rnak olishni uqtirdi. „To‘rt ulus tarixi“ asarida buyuk olim va hukmdor Mirzo Ulug‘bek uni quyidagicha bayon etadi: „Sohibqironi a‘zam Chingizxoni muazzam Sulton Jaloliddin ibn Muhammad Xorazmshohdan bu ahvolni mushohada qilgach, libosining yoqasini taajjub barmoqlari bilan tutdi.

Oliy nishonli Sul-tonning bu holi Sohibqironi Chingizxonga manzur bo‘ldi. Unga ofarin aytdi-yu, dedi: „**Otadan dunyoda hali bunday o‘g‘il tug‘il-magan. U sahroda sher kabi g‘olib jangchi, daryoda esa nohang (akula) kabi botir. Qanday qilsinki, hali**



Jaloliddin Mangurberdi Sind daryosidan o'z samanida suzib o'tmoqda. Bu joy endilikda „Shoh saqlagan“ nomi bilan mashhur.


hech kim taqdir bilan, hech bir mojaroda teng kela olmagan. Lekin u mardlikning dodini berdi. Qazoyi qadar qarshisida qudrat qo‘lini (mardona) ochdi. Mardlik bilan undan (qazo) qutulib bo‘lmaydi. Nima qilsin-qilmasin bu ulug‘ xudoning ishidir“.

Sultonning barcha fe‘l-u harakati Sohirqiron Chingizxonga manzur bo‘lib, tahsin og‘zini ochib, o‘g‘illariga yuzlandi va dedi: „**Otaga shunday o‘g‘il zarurki, u ikki girdob — olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oldi!**“

Mirzo Ulug‘bek kelgusi avlodlarga vasiyat qilib, shunday davom etadi: „*Bu Sulton Jaloliddindan ko‘p ishlar va hisobsiz qissalar vujudga keldi va uning ishlaridan har qanday oqil o‘g‘il g‘ofil qolmasligi kerak!*“

Jaloliddin Manguberding Nilab bo‘yida nafaqat lashkari, balki oilasi, onasi, farzandlari, barcha yaqinlaridan ajralib, mislsiz fojiaga duchor bo‘lgandan keyingi qalb iztirobini Mirzo Ulug‘bek shunday bayon etadi: „*Sulton Jaloliddin suvdan omon o‘tib, o‘sha yo‘qlik dengizining g‘arqobidan xaloslik topdi. U qirg‘oq bo‘ylab yurib, o‘z lashkargohi turgan joy, dushman qarshisiga yetib kelib, o‘rdusini, xazina-yu xonumonini hamda o‘ziga taalluqli xotinlar va ayollarni dushman qanday talon-taroj qilayotganligini mushohada qildi*“.

Jaloliddin Manguberdi butun vujudi, qalbini Ona-yurt, Vatan ozodligiga bag‘ishlagandi. O‘z hay-



Chingizxon: „Jaloliddin Manguberdi tiriklayin ushlansin, faqat tiriklayin ushlansin!“.

otini, oilasini — hamma narsasini Vatanga baxshida qildi. Vatan, el-ulus manfaatini har qanday shaxsiy va oilaviy hayotidan ustun qo‘ya oldi.

Inilar faryodi va qatl.

*Birlashgan o‘zar,
Birlashmagan to‘zar.*

Ajdodlardan dunyo turguncha aslo eskirmaydigan dono o‘gitlar qolgan. Ular moziy qa‘ridan bong urib, keyingi avlodlarni turli xavf-xatarlardan ogoh qilib turadi. Unga amal qilganlar har qanday og‘ir mashaqqatlarni yengib, yashash, yurtni obod qilish, farovonlikda kun kechirish huquqlarini saqlab qoladilar.

Ya’ni:

*„To‘rtovlon tugal bo‘lsa,
bitmaganni bitirar“.*

Aksincha esa: *„Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin ol-dirar“.*

Xatolik va johillik nimada? Manmanlikda. Manmanlik esa qaysarlikka yo‘l ochadi. Ko‘pincha mustahkam saltanatlarni tashqi yovdan ko‘ra ichki yov — mol-mulk, hudud talashuv, aka-ukalar va mansabparast amirlar nizolari ko‘proq ado qilgan. Bu fojialar Xorazmshohlar saltanatini ham chetlab o‘tmay, oqibat uni nishonga olib yiqitdi.

Xorazmshoh Muhammad yurtiga dahshatli mo‘g‘ullar quyunday yopirilgan chog‘da uning

hamma havas qilsa qilgudek pahlavonsifat beshta sarkarda o'g'illari bor edi. Har biri o'z qobiliyatiga yarasha yirik qo'shin sardori va mag'rib-u mashriqdagi o'lkalar hokimi edilar.

Chunonchi, Jaloliddin Manguberdi katta shahzoda bo'lib, aql, farosat, sheryuraklik, Vatan va el-ulusni jonidan sevis, dushmanga nafrat, iqtidor, harbiy iste'dod hamda siyosatni hamohang olib borish kabi qator fazilatlar egasi edi. Unga buyuk bo'lish taqdiri bitilgan bo'lib, sa'y-harakatlari ham shunga xos edi. Ikkinchi o'g'il Qutbiddin Uzloqshoh ham jasur sarkarda bo'lsa-da, siyosatda g'o'r, saltanatni boshqarish ilmida turli nuqson va kamchiliklarga ega edi. Unda davlat arbobiga xos ko'pgina sifatlari yetishmasdi. Jaloliddin Manguberdiga qaragandahar jihatdan orqada ekanligi tufayli xalq uni sevmasligini ham ich-ichidan anglar edi. Ammo buni mardona e'tirof etib, akaga yo'l berishga qaysarligi, ichi qoraligi yo'l bermasdi.

G'iyosiddin Pirshoh Muhammad Xorazmshohning uchinchi o'g'li bo'lib, o'rtamiyona lashkarboshi, siyosiy qobiliyatiga ko'ra noiblik mavqeiga mos keluvchi shahzoda edi. Ammo manmanlik, kek saqlash, qizg'anchilik, mahobatli akaning muvaffaqiyatlarini ko'ra olmaslik kabi qusur-illatlar to'riga o'ralib qolgandi. Shu sababli akasi Jaloliddinga qarshi oxirigacha dushmanlik, sotqinlik qilishdan

qaytmadi. Keyinchalik Jaloliddin Manguberdi ukasi-ning turli nayrang va g'irromliklari, hatto ochiqdan-ochiq isyonlarini bostirishga ancha kuch sarflashga majbur bo'ldi.

To'rtinchi shahzoda Jaloliddin Manguberding kichik ukasi Rukniddin bo'lib, ajoyib va mard, mag'rur sarkarda edi. Biroq u ham sog'lom aql va fikrda qat'iy turib, akasi Jaloliddin tarafiga o'ta olmay dog'da qoldi. Biroq mo'g'ullarga qarshi kurashda o'z lashkari bilan, garchi muvaffaqiyatsiz bo'lsa-da, so'nggi nafasigacha kurashdi.

Xorazmshohlar tug'i qaytadan hilpiramoqda.

Fors viloyatida turgan Jaloliddin lashkariga g'ayridin mo'g'ullarga qarshi kurash istagini bildirgan ko'plab ko'ngillilar kelib qo'shildi. Bu viloyatda lashkar kuchga to'ldi, butlandi. Qudrati tez o'sa boshladi. Natijada bu holat atrofdagi viloyat hukmdorlariga ham ta'sir qilib, ular ham birin-ketin Jaloliddin Manguberdiga o'zlarining tobeliklarini izhor qildilar.

Jangovarlik kuchlari ancha oshgan Jaloliddin Sherozga yo'l oldi, so'ng Xurosonning eng yirik va qadimiy hamda boy shahri Isfaxonga qarab yurdi. Buni eshitgan shahar aholisi uning kelishidan behad shod bo'ldilar. Negaki, ular Jaloliddin Manguderding mo'g'ullarga qarshi kurashdagi har bir

g'alabasini musulmon dunyosi, jumladan Eron va Turon xalqlarining g'alabasi deb hisoblar edilar. Sulton Jaloliddinni mo'g'ullarga qarshi kurash ramzi, mo'g'ullar asoratiga tushgan xaqlarni ozod qilishga qodir birdan-bir lashkarboshi deb biladilar. Isfaxon shahar oqsoqollari va mashhur kishilarning tashabbusi bilan Jaloliddin lashkari safini to'ldirish uchun safarbarlik e'lon qilindi. Safarbarlik g'ayridin mo'g'ul bosqinchilariga qarshi g'azovot shiori ostida o'tdi. Isfaxonning usta hunarmandlari kecha-kunduz Sulton Xorazmshoh jangchilari uchun qilich, nayza, sovut, dubulg'a o'q-yoy va qalqonlar yasashga kirishdilar.

Qisqa vaqt Isfaxonda turgan Jaloliddin Manguberdi tobelik izhorini bildirgan mazkur xududlarda adolatli qonunlar joriy qildi. Qaroqchilik, o'g'irlik, adolatsizliklarga barham berdi. Hayot maromi osoyish topdi. Xalqdan olqish va duo oldi. Uning asl maqsadi mo'g'ullarga bas keladigan davlat tuzish edi. Ana shu tayanch vujudga kelgach, Turon zamindan mo'g'ullarni haydab chiqarib, Eron-u Turonni buyuk davlatga aylantirish edi. U ana shu maqsadlarini amalga oshirish uchun bitta yirik siyosiy va harbiy arbobda bo'lishi mumkin bo'lgan iste'dodnigina emas, balki ko'pchilik tarixiy shaxslarda bo'lmagan favqulodda qobiliyatlarini ham safarbar etdi.

Isfaxon jangida tor-mor etilgan mo'g'ullar Jaloliddin Manguberdi ustiga lashkar tortishdan ancha cho'chib qoldilar. Natijada ular biroz tinchigandek bo'lishdi. Shu orada 1227- yil Chingizxonning va katta o'g'li Jo'jining o'lganligi xabari keldi. Uni Jaloliddinga yetkazganlarida sarkarda bu xabardan xursand bo'lish o'rniga xafa bo'lgan: „*Nahotki xoqon ham, Jo'ji ham o'lgan bo'lsa? Ular bilan hisob-kitobim bor edi, ularning tirikligida Ona-Vatanimni, Turon zaminni ozod qilmoqchiydim. Nahot shu rost bo'lsa, balki bu yanglish xabardir*“. Xabar olib keluvchilar isbotlovchi dalil sifatida singlisi Xon Sulton maktubini Xorazmshohga topshiradilar.

Xilot qamalidan charchagan Jaloliddin sevimli singlisidan kelgan xat daragini eshitib kotibi an-Nasaviyga o'qishni imo qiladi. Donishmand tarixchi, alloma an-Nasaviy Sulton Jaloliddin Manguberdi ruhiyatini yaxshi bilib, xat-xabarlarini kayfiyatiga moslab o'qir, tahlil qilib berardi.

Xorazmshoh Jaloliddin yagona singlisining ko'ngil satrlarini eshitar ekan, temir irodasini ishga solib, sel bo'lib tingladi. Ko'z oldiga sevimli oilasi, onaizori, farzandlari-yu, suyukli malikasi bir-bir kelaverdi; an-Nasaviy yoqimli ovozi bilan o'qiyotgan maktubda quyidagi satrlar jonlana boshladi: „*Buyuklikda tengsiz akaginam, akajonim, sizni naqadar sog'inganimni bilsangiz edi. Sizni ko'rgim keladi,*

biroq ne iloj. Taqdir meni sizning ashaddiy dushmanlaringizga ravo ko'rdi. Men shuhratingiz kundankunga ziyoda bo'layotganligini eshitib qanchalik xursand bo'lganimni ko'rsangiz edi. Akajonim, agar bu dushmanlaringizga kuchingiz yetsa qirib tashlab, o'z yurtimiz uzra bobolarimizning zafar tug'ini o'rnating. Xorazmshohlar saltanati o'lmaganligi, yashayotganligini xalq Sizning timsolingizda ko'rsin. Dushmanlar kuysin, do'stlaringiz quvonsin“. Bu xat an-Nasaviy qo'lida qolib, Sulton Jaloliddin Manguberdi kurashi va hayoti haqida yozilayotgan tarix kitobining sahifasidan joy oldi. Aka va singil munosabatlarining eng og'ir va achinarli intiho topganidan darakchi bo'lib moziy zarvarag'iga bitildi.

Buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdining jasoratiga nafaqat do'stlari, hatto ashaddiy dushmanlari ham tan berib, tahsinlar aytgani tarix sahifalariga ko'plab bitilgan. Zabardast lashkarboshi Taynal no'yon sarkarda Jaloliddin bilan to'qnashar ekan, zo'rg'a o'z hayotini saqlab qoladi. U Jaloliddinni o'z davrining chinakam pahlavoni, hukmdorlarning va sarkardalarning dahosi deb ataydi. Bu — Jaloliddin Manguberdining Sharq dunyosida tutgan o'rnini ochiq e'tirof etish edi. Haqiqatan ham buyuk sarkarda mislsiz harbiy salohiyati va bahodirligi bilan o'n bir yil mo'g'ullar selini musulmon dunyosiga yo'latmay to'sa olgan buyuk qoya bo'ldi. Ammo mu-

sulmon hukmdorlari buni kech angladilar. Dono xalqimizning: „*Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q!*“ naqlida ma‘no ko‘p. Jaloliddinni halokat chohiga tushirishgach, bu ish mutlaqo harbiy siyosiy xato bo‘lganligini anglab yetdilar. Endi Jaloliddinni ham, uning o‘rnini bosadigan sarkardani ham musulmon dunyosidan topib bo‘lmas edi. Jaloliddin Manguberdi xoinlarcha bartaraf yetilgach, mo‘g‘ullar islom mamlakatlarini birin-ketin bosib oldilar.

Vatan, el-yurt uchun xizmat qilgan tarixiy shaxslar, buyuk siyosiy arboblarning sifatida tarixga kiradilar. Vatanning bag‘ri kengdir. U el-ulus uchun, uning baxt-saodati, ozodligi va mustaqilligi uchun kurashganlarni e‘zozlaydi, ardoqlaydi, xalq yuragi to‘ridan joy beradi.

Suronli janglar va barcha mashaqqatlarda Jaloliddin Manguberdi bilan doimiy hamnafas bo‘lgan al-loma va tarixchi an-Nasaviydan o‘tkazib yozish mumkin emas. Olim Jaloliddin haqida qat‘iy va xolis so‘zini aytib ketgandir: „*Jaloliddin qoramog‘izdan kelgan, burni oldida qora xoli bor, o‘rta bo‘yli, turkiyzabon edi. Fors tilida bemalol so‘zlasha olar edi. U dovyuraklikda tengi yo‘q, sherlarning sheri, jasur suvoriy edi. U kamtarin, jiddiy odam bo‘lib, hech qachon baqirmas, so‘kinmas, atrofdagilar oldida o‘zini juda yaxshi, sipo tutar edi. U ko‘p gapirmas, xoholab kulmas, ahyon-ahyonda jilmayar edi. U*



Qudratli tog' burguti ayanchli chumchuq qo'lida nobud bo'ldi...

adolatni hurmat qilar, o‘z fuqarolariga nisbatan adolatli bo‘lishga intilar edi. U o‘z xalqining mushkul ahvolini yengillashtirishni yaxshi ko‘rar edi. Biroq u yashagan to‘s-to‘palon davr unga bunday xayrli, savob ishni amalga oshirish imkonini bermadi. U hukmronlik qilgan davrdagi suronli voqealar uni zo‘rlik ishlatishga majbur etib, fe‘l-atvorini ma‘lum darajada o‘zgartirdi“. („Sulton Jaloliddin Manguberding tarjimayi holi“, 296—297- betlar.)

Shu o‘rinda **yurtboshimizning** ajoyib bir donish so‘zi bilan ushbu mavzuni muxtasar qilishni lozim topdik: „**Har bir xalq o‘z tarixini har xil ta’sir va tajovuzlardan asrashi kerak. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib o‘zlikni anglash mumkin emas“.**

*Buyuklar nomini yod etajakmiz,
Jaloliddin Manguberdi
ruhini shod etajakmiz.*

Endilikda ona yurtida o‘z qadrini topayotgan xalqimizning daho farzandlari tavallud sanalari nishonlanayotganligi, ozod Vatanning barcha fuqarolari ularning ma‘naviy va milliy merosidan bahramand bo‘layotganligi istiqlolimiz sharofatidir. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi. (Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 24- sentabr qarori.) Bu ham xalqimizning buyuk farzandlari sha‘nini ulug‘lash, yosh av-

lodlarni otalar-bobolar jasorati ruhida kamol toptirish borasida qo'yilayotgan muborak qadam bo'ldi.

Jahondagi buyuk sarkardalar qatoridan haqli suratda o'rin olib, nomi afsonaga aylangan Jaloliddin Manguberdining hayoti va kurash yo'li hozirgi va kelajak avlod uchun ibrat namunasidir.

Aziz o'quvchilar! Har bir millat, xalq o'z buyuk ajdodlarini—Ona-Vatan, xalqning tinchligi, osoyishtaligi, mustaqilligi yo'lida jon fido qilgan vatanparvarlarni hech qachon unutmaydi.

Jaloliddin Manguberdi ham ana shunday fidoiylardan biridir.

Ma'lumki, Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbusi va farmoni bilan „Jaloliddin Manguberdi“ o'rdeni ta'sis etildi. Bu o'rden davlatimizning Oliy jangovar mukofoti bo'lib, unga Vatanimiz or-nomusi, ozodligi va mustaqilligini himoya qiladigan, shu yo'lda jonini ham ayamaydigan mard o'g'lonlar sazovor bo'ladilar.

Zero Vatanimiz Jaloliddin Manguberdi kabi mard, jasur farzandlari bo'lgan xalq, millat qudratli va ulug'dir. Vatan shunday farzandlarga, farzandlar esa muqaddas Ona-Vataniga suyangay!

MUNDARIJA

So‘z boshi	3
J. Manguberding bobolari buyuk saltanat sohiblari edilar	4
Xorazmshohlar saroyida to‘y	6
Xayr bolalik, salom chiniqish maktabi	9
Sarkardalik imtihoni va ilk g‘alaba	14
Turon osmonini qora bulutlar qoplamoqda	16
Harbiy mashvaratda J. Manguberdi so‘z so‘raydi	17
Najmiddin Kubro—vatanparvarlik timsoli	24
Parvonda ko‘tarilgan qasos qilichi	30
„Qoraqum yo‘lbarsi“	34
Nilabdagi qiyomat	38
Inilar faryodi va qatl	53
Xorazmshohlar tug‘i qaytadan hilpiramoqda	55

JUMABOY RAHIMOV
JALOLIDDIN MANGUBERDI

Umumta'lim maktab o'quvchilari uchun

Toshkent „O'qituvchi“ 2001

Maxsus muharrir: *filologiya fanlari nomzodi O. Abdullayev*

Muharrir: *S. Mirzaxo'jayev*

Dizayner *Sh. Mirfayozov*

Musavvir *A. Aliqulov*

Texnik muharrir *S. Tursunova*

Kompyuterda sahifalovchi *E. G'ulomova*

Musahhihlar: *M. Ibrohimova, S. Xo'jaahmedov*

IB № 7863

Original-maketdan bosishga nuxsat etildi 01.12.2000. Bichimi 84x108¹/₁₆. Tayms garniturası.
Kegli 18 shponli. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 6,72. Shartli. kr.ott. 45,57.
Nashr.t. 4,86. 5000 nuxxada bosildi. Buyurtma № 15 Bahosi kelishgan narhda

„O'qituvchi“ nashriyoti. Toshkent—129, Navoiy ko'chasi, 30. Shartnoma 07—115—2000.

Original-maket „O'qituvchi“ nashriyotining kompyuter bo'limida tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining Yangiyo'l ijara kitob fabrikasi.
Yangiyo'l sh., Samarqand ko'chasi, 44. 2001.